

**“TASDIQLANGAN”
“O‘zkimyosanoat” AJ
yagona aksiyadorining
2023-yil 29 – maydagi
5-son qarori bilan**

**“O‘ZKIMYOSANOAT”
AKSIYADORLIK JAMIYATINING
“AKSIYADORLAR UMUMIY YIG‘ILISHI
TO‘G‘RISIDA”GI NIZOMI
(YANGI TAHRIR)**

Toshkent – 2023-yil

I bo'lim.
Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur nizom O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga, Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish komissiyasi yig'ilishlarining bayonnomalari bilan (11.02.2016-y. 02-02/1-187-son va 27.04.2018-y. 24/1-989-son) tasdiqlangan Korporativ boshqaruv kodeksi va Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun korporativ boshqaruv qoidalarining tavsiyalariga, "O'zkimyosanoat" AJ (keyingi o'rinlarda – "Jamiyat") ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan va Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi mavqeini, ishini belgilaydi, uni o'tkazish va qarorlar qabul qilinishini tartibga soladi.

1.2. Jamiyat har yili aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishi shart.

1.3. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi moliya yili tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay o'tkaziladi. Odatda aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi iyun oyining to'rtinchi haftasi – juma kuni o'tkaziladi. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida Jamiyatning kuzatuv kengashini va taftish komissiyasini saylash to'g'risidagi, Jamiyatning boshqaruv raisi va a'zolari bilan tuzilgan shartnomaning muddatini uzaytirish, uni qayta tuzish yoki bekor qilish mumkinligi haqidagi masalalar hal etiladi, shuningdek, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 59-moddasi birinchi qismining o'n ikkinchi va o'n uchinchi xatboshilariga va mazkur ustavga muvofiq Jamiyatning yillik hisoboti, Jamiyat boshqaruvi va kuzatuv kengashining Jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisobotlari va boshqa hujjatlari ko'rib chiqiladi.

1.4. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishidan tashqari o'tkaziladigan umumiy yig'ilishlari navbatdan tashqari yig'ilishlardir.

1.5. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi va tartibi, yig'ilish o'tkazilishi haqida aksiyadorlarga xabar berish tartibi, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik vaqtida aksiyadorlarga beriladigan materiallarning (axborotning) ro'yxati Jamiyatning kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi.

1.6. Barcha oddiy aksiyalar bitta aksiyadorga tegishli bo'lgan jamiyatda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilmaydi. O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni va Jamiyatning ustavi bilan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatiga kiritilgan masalalar bo'yicha qarorlar bunday aksiyador tomonidan yakka tartibda qabul qilinadi hamda yozma shaklda rasmiylashtirilishi kerak. Bunda aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga tayyorgarlik ko'rish, uni chaqirish va o'tkazish tartibini hamda muddatlarini belgilovchi qoidalar qo'llanilmaydi, aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini o'tkazish muddatlariga taalluqli qoidalar bundan mustasno.

II bo'lim.
**Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolatlari
va qarorlarni qabul qilish**

2.1. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

2.1.1. Jamiyat ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash.

2.1.2. Jamiyatni qayta tashkil etish.

2.1.3. Jamiyatni tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash.

2.1.4. Jamiyat kuzatuv kengashining son tarkibini belgilash, ularning a'zolarini saylash va a'zolarining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish.

2.1.5. E'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash.

2.1.6. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish.

2.1.7. O'z aksiyalarini olish.

2.1.8. Jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash, boshqaruv raisi va a'zolarini saylash (tayinlash) va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish. Shuningdek, Jamiyat kuzatuv kengashi Jamiyatning boshqaruv raisi va a'zolari bilan tuzilgan shartnomani, agar ular Jamiyat ustavini qo'pol tarzda buzsa yoki ularning harakatlari (harakatsizligi) tufayli Jamiyatga zarar yetkazilgan bo'lsa, muddatidan ilgari tugatish (bekor qilish) huquqiga ega.

2.1.9. Jamiyat taftish komissiyasining a'zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, shuningdek, taftish komissiyasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash.

2.1.10. Jamiyatning yillik hisobotini, shuningdek, Jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda Jamiyatni o'rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash. Zarur hollarda Jamiyatning tasdiqlangan rivojlantirish strategiyalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.

2.1.11. Jamiyatning foydasi va zararlarini taqsimlash.

2.1.12. Jamiyat kuzatuv kengashining va taftish komissiyasining o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan, Jamiyatni boshqarishga doir qonunchilikda belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan Jamiyat kuzatuv kengashining hisobotlarini va taftish komissiyasining xulosalarini eshitish.

2.1.13. Majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish.

2.1.14. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining reglamentini tasdiqlash.

2.1.15. Aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish.

2.1.16. Jamiyatning boshqaruv raisi va a'zolariga to'lanadigan haq va (yoki) kompensatsiyalarning eng yuqori miqdorlarini belgilash.

2.1.17. O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 8- va 9-boblarida nazarda tutilgan hollarda Jamiyat tomonidan bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish.

2.1.18. Jamiyatning kundalik xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bitimlarni aniqlash.

2.1.19. Xayriya (homiylilik) yoki beg'araz yordamning eng ko'p miqdorlarini belgilash.

2.1.20. Mustaqil professional tashkilotlar – maslahatchilarni jalb qilgan holda biznes jarayonlar va loyihalar Jamiyatning rivojlanish maqsadlariga muvofiqligi har yillik tahlilini o'tkazish bo'yicha qaror qabul qilish.

2.1.21. "Ichki nazorat", "Dividend siyosati", "Manfaatlar qarama-qarshiligi vaqtida harakat qilish tartibi to'g'risida"gi nizomlarni tasdiqlash.

2.1.22. Auditorlik tashkilotlarining hisoblarini har yili tasdiqlash;

2.1.23. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish bo'yicha qaror qabul qilish;

2.1.24. Qimmatli qog'ozlar chiqarilishi to'g'risidagi qaror (aksiyalar, obligatsiyalar) va emissiya risolasini tasdiqlash;

2.1.25. Qimmatli qog'ozlar chiqarilishi to'g'risidagi qarorga (aksiyalar, obligatsiyalar) va emissiya risolasiga o'zgartirishlar va (yoki) qo'shimchalar kiritish va ularning matnini tasdiqlash.

2.1.26. O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 34-moddasiga muvofiq aksiyalarni joylashtirish (tashkil etilgan qimmatli qog'ozlar savdolariga chiqarish) narxini belgilash.

2.1.27. Mazkur Jamiyat ustaviga va qonunchilikka muvofiq boshqa masalalarni hal etish.

2.2. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar Jamiyatning Boshqaruviga hal qilishi uchun berilishi mumkin emas.

2.3. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar Jamiyatning kuzatuv kengashi hal qilishi uchun berilishi mumkin emas, qonunchilikda va Jamiyat ustavida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.

2.4. Ushbu Nizomning 2.1.1-, 2.1.2-, 2.1.3-, 2.1.5-, 2.1.12- va 2.1.17- kichik bandlarida ko'rsatilgan masalalar bo'yicha qaror aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarning to'rtidan uch qismidan iborat ko'pchilik (malakali ko'pchilik) ovozi bilan qabul qilinadi.

Soliqqa oid yoki davlat oldidagi boshqa qarzdorlik hisobiga Jamiyat ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) davlat ulushini shakllantirish yoki oshirish to'g'risidagi qaror Jamiyat aksiyadorlari umumiy yig'ilishi tomonidan Jamiyatning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining kamida uchdan ikki qismi egalari bo'lgan aksiyadorlarning (davlatdan tashqari) roziligi mavjud bo'lgan taqdirda, aksiyadorlarning oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

2.5. Ovozga qo'yilgan qolgan masalalar bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarorlari, agar "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunda va Jamiyatning ustavida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, Jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalari egalari bo'lgan, yig'ilishda ishtirok etayotgan aksiyadorlarning ko'pchilik (oddiy ko'pchilik) ovozi bilan qabul qilinadi.

2.6. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz berish "Jamiyatning ovoz beruvchi bitta aksiyasi — bitta ovoz" prinsipi bo'yicha amalga oshiriladi, Jamiyatning kuzatuv kengashi a'zolarini saylash bo'yicha kumulyativ ovoz berishni o'tkazish hollari bundan mustasno.

2.7. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida kun tartibidagi masalalar bo'yicha ovoz berish ovoz berish byulletenlari orqali yoki axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib amalga oshiriladi.

2.8. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida kun tartibidagi masalalar bo'yicha axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ovoz berilganda, ovoz berish byulletenlaridan foydalanilmaydi. Bunda ovozga qo'yilgan masalalar bo'yicha qabul qilingan qarorning qonuniyligi aksiyadorning aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatga olishda foydalaniladigan elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanadi.

2.9. Aksiyador va uning vakilining yozma talabiga asosan Jamiyat u tomonidan to'ldirilgan ovoz berish byulleteni nusxasini taqdim etishi shart.

2.10. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida qatnashish imkoni bo'lmagan aksiyador, shu jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilish sanasiga qadar 1 (bir) ish kunidan kechiktirmay Jamiyatning elektron manziliga u tomonidan to'ldirilgan va uning elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlangan byulletenning elektron variantini yuborishga haqli.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali qatnashayotgan aksiyador u tomonidan to'ldirilgan va uning elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlangan byulletenning elektron variantini aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tugaganidan so'ng 1 (bir) ish kuni davomida Jamiyatning elektron manziliga yuborishi shart.

Bunda Jamiyat byulletenning elektron variantidan foydalanish uchun aksiyador oldindan qonunchilikda belgilangan talablarga muvofiq elektron raqamli imzoni haqqoniyligini tekshirish imkoniyatini ta'minlashi shart.

Ovoz berish byulleteni aksiyador tomonidan o'z vaqtida taqdim etilmagan holda bunday byulletenlar bo'yicha ovozlar hisobga olinmaydi.

2.11. Jamiyatning aksiyadorlari, shu jumladan, minoritar aksiyadorlar, ovoz berishda o'zlarining umumiy fikrini (pozitsiyasini) shakllantirish uchun aksiyadorlik bitishuvlar tuzishga haqli.

2.12. Aksiyalar bilan taqdim qilinadigan huquqlarni amalga oshirish va (yoki) aksiyalarga bo'lgan huquqlarni amalga oshirish xususiyatlar bo'yicha shartnoma aksiyadorlik bitishuvi deb e'tirof etiladi.

2.13. Aksiyadorlik kelishuvini tuzish, bekor qilish va shartlariga rioya qilish, shuningdek ushbu kelishuv bo'yicha tomonlarning huquqlari, majburiyatlari va munosabatlari O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni bilan tartibga solinadi.

III bo'lim.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishda qatnashish huquqi. Aksiyadorlarni va ularning vakolatli vakillarini ro'yxatdan o'tkazish

3.1. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan uch ish kuni oldin shakllantirilgan Jamiyat aksiyadorlarining reyestrda qayd etilgan aksiyadorlar ega bo'ladi.

Jamiyat aksiyadorining talabiga ko'ra aksiyadorga u aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun shakllantirilgan Jamiyat aksiyadorlarining reyestriga kiritilganligi to'g'risida axborot taqdim etishi shart.

3.2. Jamiyat aksiyadorlarining reyestriga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi, mazkur reyestr shakllantirilgan sanada unga kiritilmay qolgan shaxslarning buzilgan huquqlari tiklangan yoki reyestri shakllantirishda yo'l qo'yilgan xatolar tuzatilgan hollar bundan mustasno.

3.3. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida Jamiyat aksiyadorlari reyestrda qayd etilgan aksiyadorlar, ularning vakolatli vakillari, Jamiyat auditori, kuzatuv kengashi, boshqaruv va taftish komissiyasi a'zolari hozir bo'lish huquqiga egadir.

Jamiyat kuzatuv kengashi, taftish komissiyasi a'zolariga va Jamiyatning Boshqaruv raisi va a'zosi lavozimiga nomzodlar o'zlarining nomzodlari ko'rib chiqilayotganda, aksiyadorlar umumiy yig'ilishida qatnashishlari mumkin.

3.4. Umumiy yig'ilishda qatnashish uchun aksiyadorlar yoki ularning vakolatli vakillari yig'ilish o'tkazilishi to'g'risidagi bildirishnomada ko'rsatilgan joy va vaqt bo'yicha belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tishlari kerak.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida aksiyador shaxsan qatnashish imkoni bo'lmagan taqdirda, ushbu aksiyador aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilishi to'g'risidagi bildirishnomani olgandan so'ng aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish chog'ida umumiy yig'ilishda, kun tartibidagi masalalarni

muhokama qilish va ovozga qo'yilgan masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilishda ishtirok etish imkoniyatini beradigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishi mumkin.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, masofadan turib ishtirok etish va masofadan turib elektron ovoz berish qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan umumiy tartibga asosan amalga oshiriladi.

3.5. Agar qonunchilikda o'zgacha qoida belgilangan bo'lmasa, aksiyadorning, shu jumladan aksiyadorlik bitishuv tuzgan aksiyadorlarning vakili aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida yozma shaklda tuzilgan ishonchnoma asosida ish yuritadi. Ovoz berishga doir ishonchnomada vakolat bergan va vakil qilingan shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar (ismi-sharifi yoki nomi, yashash joyi yoki joylashgan yeri, pasportiga yoki identifikatsiyalovchi ID-kartasiga oid ma'lumotlar) bo'lishi lozim. Jismoniy shaxs nomidan berilgan ovoz berishga doir ishonchnoma notarial tartibda tasdiqlangan bo'lishi kerak. Yuridik shaxs nomidan ovoz berishga doir ishonchnoma uning rahbarining imzosi va ushbu yuridik shaxsning muhri bilan (muhr mavjud bo'lgan taqdirda) tasdiqlangan holda beriladi.

3.6. Agar Jamiyatning aksiyasi bir nechta shaxsning umumiy ulushli mulkida bo'lsa, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz berish vakolatlari ularning xohishiga ko'ra umumiy ulushli mulk ishtirokchilaridan biri yoki ularning umumiy vakili tomonidan amalga oshiriladi. Ko'rsatib o'tilgan har bir shaxsning vakolatlari tegishli tarzda rasmiylashtirilgan bo'lishi kerak.

3.7. Umumiy yig'ilishda qatnashish uchun kelgan jismoniy shaxslar bo'lgan aksiyadorlarni ro'yxatdan o'tkazish aksiyadorning pasport yoki identifikatsiyalovchi ID-kartasi ko'rsatilgach, vakilga nisbatan esa notarial tartibda tasdiqlangan ishonchnoma ko'rsatilgach, amalga oshiriladi.

3.8. Yuridik shaxs – Jamiyat aksiyadorining rahbari aksiyadorlarning umumiy yig'ilishdagi o'z vakolatlarini lavozimga tayinlash to'g'risidagi huquqiy hujjat hamda shaxsni tasdiqlovchi hujjat asosida amalga oshiradi.

3.9. Yuridik shaxs – Jamiyat aksiyadorining vakili aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ushbu yuridik shaxs rahbarining imzosi yoki bunga ta'sis hujjatlari bilan vakil qilingan boshqa shaxsning imzosi va yuridik shaxsning muhri bilan tasdiqlangan uning nomiga berilgan ishonchnoma mavjud bo'lgan taqdirda qatnashishi mumkin.

3.10. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida qatnashish uchun aksiyadorlarni ro'yxatdan o'tkazish Jamiyat aksiyadorlari reyestriga binoan birinchi ilovada keltirilgan shakl bo'yicha qayd etish ro'yxati tuziladi. Qayd etish ro'yxati juzlangan, tartib raqami qo'yilgan, ip o'tkazib tikilgan va Jamiyat muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

3.11. Umumiy yig'ilishni o'tkazishda aksiyadorlar (ularning vakillari) qayd etish ro'yxatiga imzo chekadilar va Jamiyat aksiyadorlari reyestri ma'lumotlari bo'yicha belgilangan har bir aksiyadorning ovoz beruvchi aksiyalari sonidan kelib chiqib ovoz berish byulletenini oladilar (byulleten namunasi ikkinchi ilovada keltirilgan).

Mazkur Nizomning 2.9-bandida belgilangan holatlarda aksiyadorlarni ro'yxatdan o'tkazish sanoq komissiyasi tomonidan qayd etish ro'yxatiga tegishli yozuvlarni kiritish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3.12. Agar yig'ilish qatnashchisi bir yoki bir necha aksiyadorning manfaatlarini ifodalashga ishonchnoma taqdim etsa, u holda unga u ifodalayotgan aksiyador (aksiyadorlar) uchun ovoz berishga byulleten beriladi, qayd etish ro'yxatida esa u ifodalayotgan aksiyadorning familiyasi qarshisiga _____ ta (soni) ovoz beruvchi aksiyalar bo'yicha ____ - _____ da berilgan _____-son ishonchnoma bo'yicha» degan yozuv qayd etiladi hamda vakilning familiyasi, ismi, otasining ismi ko'rsatiladi.

IV bo'lim.

Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish

4.1. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilyotganda Kuzatuv kengashi quyidagilarni belgilaydi.

4.1.1. Umumiy yig'ilish o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni.

4.1.2. Umumiy yig'ilishning kun tartibini.

4.1.3. Umumiy yig'ilish o'tkazish uchun jamiyat aksiyadorlarining reyestri shakllantiriladigan sanani.

4.1.4. Umumiy yig'ilish o'tkazilishi haqida aksiyadorlarga va davlat vakiliga xabar qilish tartibini.

4.1.5. Umumiy yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga va davlat vakiliga taqdim etiladigan axborot (materiallar) ro'yxatini.

4.1.6. Ovoz berish byulletenining shakli va matnini.

4.1.7. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish va ovoz berish, shu jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etish va ovoz berish tartibini.

4.2. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan kamida yigirma bir kundan kechiktirmay, lekin uzog'i bilan o'ttiz kun oldin Korporativ axborotning yagona portalida, Jamiyatning korporativ veb-saytida, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi, shuningdek, aksiyadorlarga elektron pochta orqali yuboriladi.

4.3. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabarda quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

4.3.1. Jamiyatning nomi, joylashgan yeri (pochta manzili) va elektron pochta manzili.

4.3.2. Umumiy yig'ilish o'tkaziladigan sana, vaqt va joy.

4.3.3. Jamiyat aksiyadorlarining reyestri shakllantiriladigan sana.

4.3.4. Umumiy yig'ilish kun tartibiga kiritilgan masalalar.

4.3.5. Umumiy yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga va davlat vakiliga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborot (materiallar) bilan aksiyadorlarni tanishtirish tartibi;

4.3.6. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish va ovoz berish, shu jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etish va ovoz berish tartibi.

4.4. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborotga (materiallarga) Jamiyatning yillik hisoboti, Jamiyatning yillik moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish natijalari yuzasidan jamiyat taftish komissiyasining (taftishchisining) va auditorlik tashkilotining xulosasi, Jamiyatning kuzatuv kengashining boshqaruv raisi va a'zolari bilan tuzilgan shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish, shartnomani qayta tuzish yoki bekor qilish mumkinligi to'g'risidagi xulosasi, shuningdek, Jamiyatning kuzatuv kengashi hamda taftish komissiyasi a'zolariga (taftishchiliga) nomzodlar to'g'risidagi ma'lumotlar, Jamiyatning ustaviga kiritiladigan o'zgartish va qo'shimchalar loyihasi yoki jamiyatning yangi tahrirdagi ustavi loyihasi, shuningdek, kuzatuv kengashining aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kun tartibi bo'yicha munosabati kiradi.

Aksiyadorlarga berilishi lozim bo'lgan axborotdan (materiallardan) aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etadigan, shu jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etadigan shaxslar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilguniga qadar va uni o'tkazish vaqtida foydalana olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda, aksiyadorlarga taqdim etilishi majburiy bo'lgan qo'shimcha axborotning (materiallarning) ro'yxati qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilanishi mumkin.

4.5. Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyador) jamiyatning moliya yili tugaganidan keyin to'qson kundan kechiktirmay, aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi kun tartibiga masalalar kiritishga hamda jamiyatning kuzatuv kengashiga va taftish komissiyasiga (taftishchiliga) ushbu kengashning va komissiyaning (taftishchilarning) son tarkibidan oshmaydigan tarzda nomzodlar ko'rsatishga haqli, bundan kuzatuv kengashining mustaqil a'zolariga nomzodlar ko'rsatish mustasno.

4.6. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga masala uni qo'yish sabablari, masalani kiritayotgan aksiyadorlarning (aksiyadorning) ismi-sharifi (nomi), ularga tegishli aksiyalarning soni va turi ko'rsatilgan holda yozma shaklda kiritiladi.

Jamiyat kuzatuv kengashiga va taftish komissiyasiga nomzodlar ko'rsatish to'g'risida takliflar kiritilganda, shu jumladan, o'zini o'zi nomzod qilib ko'rsatilgan taqdirda, nomzodning ismi-sharifi, unga tegishli aksiyalarning soni va turi (agar nomzod Jamiyat aksiyadori bo'lsa), shuningdek, nomzodni ko'rsatayotgan aksiyadorlarning ismi-sharifi (nomi), ularga tegishli aksiyalarning soni va turi ko'rsatiladi.

4.7. Jamiyatning kuzatuv kengashi tushgan takliflarni ko'rib chiqishi hamda mazkur nizomning 4.5-bandida belgilangan muddat tugaganidan so'ng o'n kundan kechiktirmay ularni aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritish to'g'risida yoki mazkur kun tartibiga kiritishni rad etish haqida qaror qabul qilishi shart.

4.8. Aksiyadorlar (aksiyador) tomonidan kiritilgan masala aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga, xuddi shuningdek, ko'rsatilgan nomzodlar Jamiyatning kuzatuv kengashiga va taftish komissiyasiga saylov bo'yicha ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritilishi kerak, quyidagi hollar bundan mustasno:

4.8.1. Ushbu nizomning 4.5.-bandida belgilangan muddatga aksiyadorlar (aksiyador) tomonidan rioya etilmagan bo'lsa.

4.8.2. Aksiyadorlar (aksiyador) Jamiyatning ushbu nizomning 4.5.-bandida nazarda tutilgan miqdordagi ovoz beruvchi aksiyalarining egasi bo'lmasa.

4.8.3. Agar ushbu Nizomning 4.6.-bandida nazarda tutilgan ma'lumotlar to'liq bo'lmasa.

4.8.4. Takliflar qonunchilik talablariga muvofiq bo'lmasa.

4.9. Aksiyadorlar (aksiyador) Jamiyat kuzatuv kengashi va taftish komissiyasiga o'zlari ko'rsatgan nomzodlar ro'yxatiga aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi o'tkazilishi to'g'risidagi xabar e'lon qilingan sanadan e'tiboran uch ish kunidan kechiktirmay o'zgartishlar kiritishga haqli.

4.10. Jamiyat kuzatuv kengashining masalani aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga yoki nomzodni Jamiyat kuzatuv kengashiga va taftish komissiyasiga saylov bo'yicha ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritishni rad etish to'g'risidagi asoslantirilgan qarori masalani kiritgan yoki taklif taqdim etgan aksiyadorlarga (aksiyadorga) qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch ish kunidan kechiktirmay yuboriladi.

4.11. Jamiyat kuzatuv kengashining masalani aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga yoki nomzodni Jamiyat kuzatuv kengashiga va taftish komissiyasiga saylov bo'yicha ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritishni rad etish to'g'risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

V bo'lim.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish

5.1. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi Jamiyat Kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra:

5.1.1. Uning o'z tashabbusi asosida.

5.1.2. Taftish komissiyasining (taftishchining) yozma talabi.

5.1.3. Yozma talab taqdim etilgan sanada Jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) yozma talabi asosida o'tkaziladi.

5.2. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish haqida yozma talab taqdim etilgan kundan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay Jamiyatning kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

5.3. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi talabda yig'ilish kun tartibiga kiritilishi kerak bo'lgan masalalar ularni kiritish sabablari ko'rsatilgan holda ta'riflangan bo'lishi kerak.

5.4. Jamiyatning kuzatuv kengashi Jamiyat taftish komissiyasining yoki Jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga ko'ra chaqiriladigan aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi kun tartibidagi masalalarning ta'rifiga o'zgartishlar kiritishga haqli emas.

5.5. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi talab aksiyadordan (aksiyadorlardan) chiqqan taqdirda, bu talabda umumiy yig'ilishni chaqirishni talab qilayotgan aksiyadorning (aksiyadorlarning) ismi-sharifi (nomi), unga tegishli aksiyalarning soni, turi ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

5.6. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi talab aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni talab qilgan shaxs (shaxslar) tomonidan imzolaniadi.

5.7. Jamiyatning taftish komissiyasi yoki Jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida talab taqdim etgan sanadan e'tiboran o'n kun ichida Jamiyat Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida yoki yig'ilishni chaqirishni rad etish haqida qaror qabul qilishi kerak.

5.8. Jamiyat taftish komissiyasining (taftishchisining) yoki Jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga ko'ra aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni rad etish to'g'risidagi qaror quyidagi hollarda qabul qilinishi mumkin, agar:

5.8.1. Talab taqdim etilgan sanada aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni talab qilayotgan aksiyador (aksiyadorlar) ovoz beruvchi aksiyalarining besh foiziga ega bo'lmasa.

5.8.2. Kun tartibiga kiritish uchun taklif etilgan masalalardan birortasi ham aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kirmasa.

5.8.3. Kun tartibiga kiritish uchun taklif etilgan masala "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni talablariga muvofiq bo'lmasa.

5.9. Jamiyat kuzatuv kengashining aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi qarori yoki bunday yig'ilishni chaqirishni rad etish haqidagi asoslantirilgan qarori yig'ilish chaqirishni talab qilgan shaxslarga qaror qabul qilingan paytdan e'tiboran uch ish kunidan kechiktirmay yuboriladi.

5.10. Jamiyat kuzatuv kengashining aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni rad etish to'g'risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

5.11. Jamiyat kuzatuv kengashi ushbu Nizomning 5.2-bandida belgilangan muddat ichida aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilmagan taqdirda yoki uni chaqirishni rad etish haqida qaror qabul qilgan taqdirda, aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi uni chaqirishni talab qilgan shaxslar tomonidan chaqirilishi mumkin.

Bunday hollarda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarning o'ri aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra jamiyatning mablag'lari hisobidan qoplanishi mumkin.

VI bo'lim.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kvorumi

6.1. Agar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tugallangan paytda Jamiyatning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami ellik foizidan ko'proq ovoziga ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatli (kvorumga ega) bo'ladi.

6.2. Kvorum hisoblashda mazkur Nizomning 2.9-bandida belgilangan tartibga muvofiq aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida qatnashayotgan aksiyadorlarning ovoz beruvchi aksiyalari ham hisobga olinadi.

6.3. Agar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi boshlanishining belgilangan vaqtiga kvorum bo'lmasa aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi e'lon qilinadi. Aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishini o'tkazishda kun tartibini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

6.4. Agar aksiyadorlarning o'tkazilmay qolgan yig'ilishi o'rniga chaqirilgan takroriy umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tugallangan paytda Jamiyatning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami qirq foizidan ko'proq ovoziga ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishi vakolatli bo'ladi.

6.5. Agar takroriy umumiy yig'ilishda kvorum bo'lmasa, bunda aksiyadorlarning tashabbusi bilan chaqirilgan yig'ilish amalga oshmagan deb hisoblanadi va boshqa chaqirilmaydi, Kuzatuv kengashi yoki taftish komissiyasi tashabbusi bilan chaqirilgan yig'ilish esa kvorum ta'minlanmaganicha chaqiriladi.

6.6. Kvorum bo'lmaganligi sababli aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi yigirma kundan kam muddatga ko'chirilgan taqdirda, umumiy yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar o'tkazilmay qolgan umumiy yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning reyestriga muvofiq aniqlanadi.

VII bo'lim.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining ishchi organlari

7.1. Quyidagilar umumiy yig'ilish ishchi organlari hisoblanadi: rayosat, sanoq komissiyasi, kotib (kotibiyat).

7.2. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini Jamiyat kuzatuv kengashining raisi, u uzrli sabablarga ko'ra bo'lmagan taqdirda esa, Jamiyat kuzatuv kengashining a'zolaridan biri olib boradi.

7.3. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi raisi yig'ilish rayosatiga boshchilik qiladi, yig'ilish olib borilishini ta'minlaydi va o'z vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan barcha vakolatlarga ega bo'ladi. Bunda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi rayosati tarkibiga Jamiyatning vakili lavozimiga ko'ra kiradi.

7.4. Umumiy yig'ilish raisi yig'ilish o'tishiga rahbarlik qiladi, ishchi organlari ishini muvofiqlashtiradi, masalalarni muhokama qilish tartibini belgilaydi, ma'ruzachilarning nutq so'zlashlari vaqtini chegaralaydi, yig'ilishni olib borish va ovoz berish bo'yicha tushuntirishlar beradi, zalda tartib o'rnatilishini nazorat qiladi. Umumiy yig'ilish raisi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini audio-video tasmaga yozib olish va Internet tarmog'ida translyatsiya qilish masalalarni ruxsat berish (sanksiya berish) huquqiga ega.

7.5. Ovozlarni sanab chiqish, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etishi uchun aksiyadorlarni ro'yxatga olish, shuningdek, ovoz berish byulletenlarini tarqatish uchun Jamiyatning kuzatuv kengashi tomonidan sanoq komissiyasi tuzilib, uning a'zolari soni va shaxsiy tarkibi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

7.6. Sanoq komissiyasining tarkibi kamida uch kishidan iborat bo'lishi kerak. Sanoq komissiyasi tarkibiga Jamiyat kuzatuv kengashining a'zolari, taftish komissiyasining a'zolari (taftishchisi), Jamiyat boshqaruvi a'zolari, ishonchli boshqaruvchi, shuningdek, ana shu lavozimlarga nomzodi ko'rsatilgan shaxslar kirishi mumkin emas.

7.7. Bunda sanoq komissiyasiga amaliy yordam ko'rsatish yoki uning funksiyalarini bajarish uchun Jamiyat kuzatuv kengashining qaroriga asosan mustaqil ekspertlar (investitsion maslahatchilar va boshqa qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari) jalb qilinishi mumkin.

7.8. Ovoz berilganida ovoz beruvchi qaysi masala bo'yicha ehtimol tutilgan ovoz berish variantlaridan faqat bittasini qoldirgan bo'lsa, o'sha masala bo'yicha berilgan ovozlar hisobga olinadi. Mazkur talabni buzgan holda to'ldirilgan ovoz berish byulletenlari haqiqiy emas deb topiladi va ulardagi masalalar bo'yicha berilgan ovozlar hisobga olinmaydi.

7.9. Agar ovoz berish byulletenida ovozga qo'yilgan bir nechta masala ko'rsatilgan bo'lsa, bir yoki bir nechta masalaga nisbatan mazkur Nizomning 7.8-bandida ko'rsatilgan talabga rioya etilmaganligi byulletenning umuman haqiqiy emas deb topilishiga sabab bo'lmaydi.

7.10. Sanoq komissiyasi unga yuklatilgan vazifalarni bajarish masalasida mustaqil ish yurituvchi yig'ilishning doimiy faoliyat ko'rsatadigan ishchi organi hisoblanadi va kuzatuv kengashi taklifi asosida aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan saylanadi.

7.11. Sanoq komissiyasi vakolatlarining muddati u aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan saylangan paytdan boshlab aksiyadorlarning tegishli yig'ilishi (yillik yoki navbatdan tashqari) tomonidan sanoq komissiyasining yangi tarkibi saylanishi (yoki qayta saylanishi) paytigacha amal qiladi.

7.12. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida sanoq komissiyasi quyidagi funksiyalarini amalga oshiradi:

7.12.1. Umumiy yig'ilishda qatnashish uchun aksiyadorlarni (ularning vakillarini) ro'yxatdan o'tkazadi.

7.12.2. Ishonchnomalar va ular tomonidan beriladigan huquqlar hisobini yuritadi.

7.12.3. Ovoz berish byulletenlarini va umumiy yig'ilishning boshqa materiallarini tarqatadi.

7.12.4. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kворumi mavjudligini aniqlaydi;

7.12.5. Aksiyadorlar (ularning vakillari) tomonidan umumiy yig'ilishda ovoz berish huquqini amalga oshirish munosabati bilan paydo bo'luvchi masalalarni tushuntiradi.

7.12.6. Ovoz berishga qo'yilayotgan masalalar bo'yicha ovoz berish tartibini tushuntiradi.

7.12.7. Ovoz berishning belgilangan tartibini va aksiyadorlarning ovoz berishda qatnashishi huquqini ta'minlaydi.

7.12.8. Ovozlarni sanaydi va ovoz berish yakunlarini chiqaradi.

7.12.9. Ovoz berish yakunlari bo'yicha ovoz berish yakunlari to'g'risida sanoq komissiyasi a'zolari tomonidan imzolanadigan bayonnoma tuzadi. Ovoz berish yakunlari to'g'risidagi bayonnoma aksiyadorlar umumiy yig'ilishining, shu jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan, holda masofadan turib o'tkaziladigan umumiy yig'ilishining kворumi mavjudligi haqidagi ma'lumotni o'z ichiga oladi.

7.12.10. Ovoz berish yakunlari to'g'risidagi bayonnoma tuzilganidan va aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasi imzolanganidan keyin aksiyadorlarning qog'ozdagi yoki elektron jismdagi ovoz berish byulletenlarini muhrlagan holda Jamiyat arxiviga saqlash uchun topshiradi.

7.13. Umumiy yig'ilish kotibiyatining son va shaxsiy tarkibi aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

7.14. Umumiy yig'ilish kotibiyati:

7.14.1. Umumiy yig'ilishning borishini bayonga qayd etib boradi;

7.14.2. Yozma buyurtmanomalar bo'yicha yig'ilish kun tartibi masalalarini muhokama qilishda qatnashish istagini bildiruvchilar ro'yxatini olib boradi;

7.14.3. Mazkur Nizomda nazarda tutilgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan hollarda o'tkazilgan yig'ilishni elektron jismga yozib olinishini ta'minlaydi;

7.14.4. Umumiy yig'ilish tamom bo'lgandan so'ng 10 (o'n) kundan kechiktirmay aksiyadorlar umumiy yig'ilishi bayonini ikki nusxada tuzadi.

VIII bo'lim.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishni olib borish tartibi

8.1. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini olib borish tartibi (reglament) aksiyadorlarning har bir umumiy yig'ilishida mazkur nizomga muvofiq tasdiqlanadi.

8.2. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishning raisi umumiy yig'ilish sanoq komissiyasini, rayosatini va kotibiyatni (kotibni) saylashni taklif etadi.

8.3. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining ishchi organlar tarkibi oddiy ko'pchilik ovoz bilan tasdiqlanadi.

8.4. Umumiy yig'ilishni olib borish tartibi yig'ilishning boshlanishi va taxminan tamom bo'lish vaqtini, nutqlar qancha davom etishi va tanaffuslarni, kun tartibidagi masalalarning izchilligini, kun tartibi masalalari bo'yicha ma'ruzachilarning familiyalari va lavozimlarini, ovoz berishni amalga oshirish va uning natijalarini e'lon qilish tartibini nazarda tutadi.

8.5. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida muhokama qilinayotgan masala bo'yicha yig'ilishning har bir qatnashchisi belgilangan vaqt doirasida so'zga chiqish huquqiga ega. Ushbu huquqni ta'minlash aksiyadorlar umumiy yig'ilishi raisining zimmasida bo'ladi.

8.6. Kun tartibidagi masalalarni muhokama qilishda qatnashish istagini bildirganlar umumiy yig'ilish kotibiyatiga muhokama qilinadigan masalani ko'rsatgan holda yozma buyurtmanoma berishlari lozim.

8.7. Kun tartibining barcha masalalari muhokama qilingandan keyin rais aksiyadorlar umumiy yig'ilishini yopiq deb e'lon qiladi.

IX bo'lim.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasi

9.1. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida bayonnoma yuritiladi.

9.2. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasida:

- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilgan sana, vaqt va joy.

- Jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalariga egalik qiluvchi aksiyadorlar ega bo'lgan ovozlarning umumiy soni.

- umumiy yig'ilishda ishtirok etgan aksiyadorlar ega bo'lgan ovozlarning soni.

- umumiy yig'ilishning raisi (rayosati) va kotibi, yig'ilish kun tartibi ko'rsatiladi.

- ma'ruzalarning asosiy mazmuni, ovozga qo'yilgan masalalar hamda ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari, yig'ilish qabul qilgan qarorlar.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'tkazilganda yig'ilish bayonnomasiga ushbu yig'ilishning video yozuvi shartli ravishda ilova qilinadi.

9.3. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yopilganidan keyin 10 (o'n) kundan kechiktirmay ikki nusxada tuziladi. Har ikkala nusxa ham umumiy yig'ilishda raislik qiluvchi va umumiy yig'ilish kotibi tomonidan imzolandi.

9.4. Sanoq komissiyasi bayoni yig'ilishning maxsus qarori bilan tasdiqlanmaydi, balki ma'lumot uchun qabul qilinadi hamda umumiy yig'ilish bayonnomasiga qo'shib qo'yilishi kerak.

9.5. Ovoz berish yakunlari to'g'risida bayonnoma tuzilganidan va aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasi imzolanganidan keyin ovoz berish buyulitenlari sanoq komissiyasi tomonidan muhrlanadi hamda saqlab qo'yish uchun Jamiyatning arxiviga topshiriladi.

X bo'lim.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarorlarini bajarish

10.1. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilingan qarorlar, shuningdek, ovoz berish yakunlari aksiyadorlar e'tiboriga:

- aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tugaganidan so'ng e'lon qilish;

- aksiyadorlar umumiy yig'ilish bayonnomasi tuzilgan sanadan 2 (ikki) ish kuni davomida muhim fakt to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish yo'llari bilan yetkaziladi.

Agar Jamiyat aksiyalari fond birjasining listingiga kiritilgan bo'lsa, Jamiyat fond birjasining rasmiy veb-saytida tegishli axborotni e'lon qilishi shart.

- 10.2. Jamiyat boshqaruvi aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarorlari bajarilishini tashkillashtiradi.
- 10.3. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarorlari bajarilishi ustidan nazorat qilishni, basharti yig'ilish qarorida o'zgacha hol qayd etilmagan va bayonda aks ettirilmagan bo'lsa, Jamiyatning kuzatuv kengashi amalga oshiradi.
- 10.4. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarorlari umumiy yig'ilishda hozir bo'lgan, shuningdek, hozir bo'lmagan barcha aksiyadorlar tomonidan, ularga tegishli va qonunchilikka zid bo'lmagan qismi bo'yicha bajarilishi majburiydir.

XI bo'lim.
Yakuniy qoidalar

- 11.1. Mazkur Nizom aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.
- 11.2. Agar mazkur Nizomning biron-bir qoidasi o'z kuchini yo'qotgan bo'lsa, bu qoida boshqa qoidalarni to'xtatish uchun sabab bo'lmaydi.
- 11.3. Agar O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari yoxud Jamiyat ustavida mazkur Nizomda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari va Jamiyat ustavi qoidalari qo'llaniladi.
- 11.4. Ushbu nizom aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan kundan boshlab avval tasdiqlangan "O'zkimyosanoat" AJning "Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi to'g'risida"gi nizom va unga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar o'z kuchini yo'qotadi.

“O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyatining ____ yil “ ____ ” ____ da, soat ____:____,
_____ manzil bo‘yicha o‘tkazilgan aksiyadorlar yillik (navbatdan tashqari) umumiy yig‘ilishining

QAYD QILISH RO‘YXATI

№ t/r	Aksiyadorning F.I.Sh. yoki nomi	Ovoz beruvchi aksiyalar soni	Aksiyador imzosi	(Aksiyador vakili qatnashganda to‘ldiriladi)				
				Aksiyador vakilining F.I.Sh.	Ishonchnoma raqami	Ishonchnoma berilgan sana	Ovoz beruvchi aksiyalar soni	Vakilning imzosi
1	2	3	4	5	6	7	8	9

Jami _____ dona ovoz beruvchi aksiyalarga ega bo‘lgan yig‘ilish qatnashchilarning ro‘yxatga olingan soni _____ kishi.

Yig‘ilish kvorumi (jami ovoz beruvchi aksiyalar soniga nisbatan foizda) _____ %.

Sanoq komissiya a‘zolari:

_____ F.I.Sh.
(imzo)

_____ F.I.Sh.
(imzo)

_____ F.I.Sh.
(imzo)

“O‘zkimyo sanoat” AJning
 “Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi to‘g‘risida”gi Nizomiga
 2-ilova

“O‘zkimyo sanoat” aksiyadorlik jamiyatining ____-yil ____-____da, soat ____:____da, quyidagi manzil bo‘yicha: _____da, bo‘lib o‘tayotgan aksiyadorlarning (navbatdagi, navbatdan tashqari) umumiy yig‘ilishida _____dona ovoz beruvchi aksiyaga ega _____ning (yuridik shaxs aksiyadorning to‘liq nomi yoki jismoniy shaxs aksiyadorning F.I.Sh.)

____-son
BYULLETENI *

Kun tartibidagi masalalar bo‘yicha ovoz berishda faqat ovoz berish variantlaridan “yoqlayman”, “qarshiman” yoki “betarafman” bittasini tanlang (variantlarni tanlash usuli: X, **yoki tegishli ustunga ovozlar sonini yozib quyung**).

T/r	Ovoz berishga qo‘yilgan masalalar	Yoqlayman	Qarshiman	Betarafman

Kuzatuv kengashini saylash yuzasidan kun tartibidagi masala bo‘yicha ovozlar soni (ovoz beruvchi aksiyalar soni jamiyatning kuzatuv kengashiga saylanishi lozim bo‘lgan shaxslar soniga ko‘paytiriladi) - _____. Siz shu tariqa olgan ovozlarni bitta nomzodga to‘liq berishga yoki ikki va undan ortiq nomzodlar o‘rtasida taqsimlashga haqlisiz.

T/r	Ovoz berishga qo‘yilgan masalalar		Kuzatuv kengashi tarkibiga saylanayotgan nomzodga berilgan ovozlar soni
	Kuzatuv kengashining tarkibiga saylansin:		
	Nomzodning F.I.Sh.	Nomzod haqida qisqa ma’lumot	

F.I.SH _____

_____ (imzo)

Ovoz berish byulleteni aksiyador (uning vakili) tomonidan imzolanishi lozim.

* Aksiyadorni qayd qilish ro‘yxatidagi tartib raqami yoziladi.